

HAJVIYOTNING O'ZIGA XOS USLUBLARI

*Ravshanova Gulruxbegim Qahramon qizi,
QarDU dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Annotatsiya: Ijtimoiy-madaniy hayot silsilalarida avvalo, eng katta janriy-kompozitsion yaxlitlik zamzamalari ma'rifatparvarlik davri ijodkorlari asarlarida bo'y ko'rsatib, keyinchalik qat'iy tamoyillarda yanada sayqallana boshladi. Individual xarakterdan ibtidolangan va so'ngra umumkayfiyatga tutashuvi hajvnavislikning falsafiy-estetik mezonlarini yangilashga zamin hozirladi. Kuchli tanqidiy-psixologik kayfiyat hajviy asarlarning takomillashuviga evrila boshlandi. Bu aynanlik adabiy yo'nalishlarda yangi-yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Mana shu jihatlar biz tadqiq etayotgan yangi o'zbek she'riyatida hajvnavislik hodisasining poetik talqinini aniqlashda hajviy she'riyatdagi mavzu, muammo, g'oya, pafos kabi tushunchalarning terminologik ma'nolariga aniqlik kiritildi.

Kalit so'zlar: humor, tanqid, satira, hajvnavislik, poetologik konstruksiya, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.

Kirish: Yozuvdagi sof o'zbek satirasining ildizi juda chuqur. Biz uni ortiqcha kavlashtirib o'tirmaylik..."Ko'rinaridiki, shoир o'zbekona lutf, hangomalarning asl ildiziga diqqat qaratmoqda. Demak, ming yillik va undan qadimgi davrlarga borib taqalgan xalq og'zaki ijodimizdagi boy ma'naviy xazinaning o'zida qanchalab sirlar, haqiqatlar yashiringanini alohida ta'kidlamoqda. Ertak va dostonlar tabiatida aks etgan mantiq o'zligimizning, donishmand xalqimizning adabiy xazinasi ekanligini urg'ulamoqda. Bundan kelib chiqadigan xulosa ham, Gulmat obrazi bilan Matmusa orasida qandaydir o'xshashlikni anglash mumkin. Har ikkala shoир vodiylu ruhiyatini, ya'ni askiyaxonlik uslubini adabiyotga yangicha shalkda, uslubda olib kirganligini his etamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Satira o‘zbek adabiyotida jadidlardan keyin G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Sharof Boshbekov ijodida ham ranginlashdi. Said Ahmad satirik hikoyalari, miniatyuralari, mushtumbop hajviyalarida qancha-qancha ijtimoiy muammolarimizga iztirob bilan nigoh tashlanganini ko‘rishimiz mumkin. Birgina “To‘y” bilan bog‘liq miniatyuralari bugun ham yelkamizdan nari tushgani yo‘q. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov. Anvar Obidjon, Omon Matchon lirkasida turli xil janrlarda o‘ziga xos uslubda yuzaga chiqdi. Aynan mana shu jihatlar davrning umumiy manzarasi haqida tasavvur qilishga imkon beradi:

Qolsun desang agar mandin yaxshi ot,

Yotni so‘kma, jahl chiqsa nosni ot.

Eshaklikka salom bergil birinchi,

O‘zing minib olg‘on esang hamki ot¹.

“Bezgakshamol” turkum she’rlarida tuyuqning hajviy ifodasini ham ko‘ramiz. Inson o‘zidan yaxshi ot qoldirishi uchun maydakashlik, kibr va maqtanchoq bo‘lma, aqlu farosat hamisha insonni ma’nан yuksalishiga xizmat qiladi degan da’vat mana shu tuyuq-she’rda aks ettirilgan. Eshak va ot mingan odamning o‘zaro munosabati, eshakliga salom ber, undan o‘zingni baland tutma, baribir uni yengolmaysan degan muhim bir hayotiy aqidani ilgari surmoqda. Har bir misradagi – ot o‘ziga xos ma’no tashuvchi bo‘lib, shoirning asl maqsadini to‘ldiruvchi unsur sifatida namoyish qilinadi. D.Quronov: “Komiklik umumestetik kategoriya sanalib, badiiy asarlarning barida kuzatilishi mumkin.. Komiklikning yuzaga chiqish yo‘sini bir xil bo‘lmaydi. Masalan, satira va yumorda subyekt munosabati ko‘proq obyektdagi ziddiyatni bo‘rttirib ko‘rsatish orqali namoyon bo‘lsa, kinoya va sarkazmda obyektdagi ziddiyat, asosan, muallif munosabati orqali yuzaga chiqariladi”. Darhaqiqat, D.Quronovning keltirgan manbasi A.Obidjonda ikki xususiyatda namoyon bo‘lgan. Yuqoridagi “Yovvoyi tuyuq” she’rida ham shoirning tashqi dunyoga o‘z idealidan kelib chiqib mushohada qilinganligi yaqqol sezalidi. Individual va begonalashtirish orqali kulgu uyg‘otish bir shaxsning boshqa bir shaxsga

¹ Кўрсатилган адабиёт, -Б. 69

nisbatan ichki bir nazar orqali namoyon bo‘lishi bilan o‘lchanadi. YA’ni subyetdan obyektga evrilayotgan kulgi zamirida ichki ehtiyoj va boshqalarda bu qusurning bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik istagi yotadi, aslida. A.Obidjon dunyoni toza va pok ko‘rmoqda. Jamiyat esa bunga izn bermaydi. Uning qahramonlari ayyor va mug‘ombir, o‘zini manfaati yo‘lida har qanday pastkashlikni qiladigan emas, aksincha, donishmandona, faylasufona, orifona fikrlaydigan, hamishaadolat va haqiqat tug‘ini tutgan odam sifatida gavdalanadi. Bu xususiyat shoirning mahorati yuksakligidan, tafakkur sarhadlari benihoya turfalogidan, kengligidan dalolat beradi.

Natijalar: Shuni aytish joizki, hajviy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo‘lishiga qaramay, unga munosabat turli millatlarda o‘z ma’naviy-axloqiy o‘lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Chunonchi, Botish ahli bundan necha minglab yillar oldin ham hajviyotga katta e’tibor bilan qaragan. Shu bois, bu o‘lkalarda antik zamonlardayoq hajviy adabiyot rivojlangan. Bizning ma’naviyatimizda jiddiyat, andisha ustun bo‘lgani uchun ham yozma adabiyotdagi hajviy yo‘nalish rivojiga kam e’tibor qaratilgan deyish mumkin. Chunki islomiy axloq o‘rinli-o‘rinsiz kulishni, birovlarni hajv qilishni unchalik ma’qullamagan. Bu hol badiiy adabiyotimizda hajvchilikning juda ham taraqqiy etishiga imkon bermagan. Lekin diniy, axloqiy aqidalarining qandayligidan qat’i nazar, hayot insonni kulgili vaziyatlar, kulgi va masxaraga loyiq odamlar orasida bo‘lishga majbur qilar ekan, tabiiy ravishda, badiiy hajviyot ham yuzaga kelgan va ma’lum darajada rivojlangan. Anvar Obidjon hajviy she’rlarini “Uchpaxsa” deb nomlab, rang-barang tashbehlarni mahorat bilan qo‘llaydi. Keyinchalik uchchanoq deb nomlashida ham muayyan aniq maqsad borligini anglash qiyin emas. Bu borada katta monografik tadqiqot olib borgan dots.Q.Yo‘lchiyev shunday qayd etadi: Aksariyat uchchanoqlarda shoir ikki nuqta, undov belgisi, tire, ko‘p nuqta kabi tinish belgilardan unumli foydalangan. U tinish belgilariga she’rning poetik g‘oyasi va mazmunidan kelib chiqib o‘ziga xos vazifa yuklaydi.

Masalan:

Yetmish yilki, bir maraz –

Takror-takror berar dars:

“Qo‘yda uchta oyoq bor!!!”

Bu yerda mavzu sobiq tuzumdagи mafkuraviy noqislik haqida boryapti. Unda she’rning asosiy g‘oyasi – haqiqatparvarlik ilgari surilgan. Lekin badiy ifodalash uchun tire va ikki nuqtaga tayangan. Tirega va “dars”ga butun sobiq sovet tuzumi va jamiyatning qator voqealari singdirib yuborilgan. Ikki nuqta va undovda esa uning real basharasi ko‘rinadi. YA’ni dars o‘tayotgan kishi hayajon bilan baqirib gapiradi, “Qo‘yda uchta oyoq bor” degan gap esa uning dunyoqarashini ochgan. Bu yerdagi “uchta oyoq” iborasi aslidagi to‘rt oyoqqa qarshi qo‘yilgan. Ayon bo‘lmoqdaki, shoир ijtimoiy tuzum tushovlariga solingan adabiyotning taqdiridan iztirob chekadi. Chalasavod domlalarning ilm berishidan naf yo‘qligiga qayg‘uradi. Q.Yo‘lchiyev ta’kidlarida jon bor. Ilmli otabobolarimiz tomonidan qanday ma’naviy xazinaga ega ekanligimizni birgina uchchanoq – uch misrada aks ettirganiga qoyil qolamiz.

Muhokama: Ma’lumki, Omon Matchon she’riyatida hajviy she’riy shakllarning mavzu doirasi ham boshqa shoirlarniki singari xilma-xildir. Shoирning oddiy tayoq haqidagi “Tayoqlar” she’rini tahlil qilihamiz:

Birlarin “ot” etib bolalar,

Chopishar qishloqning yo‘lida.

Birlari egilar – yoy bo‘lar,

O‘q otar birovlar qo‘lida.

Birlari chollarga yo‘ldoshdir,

Keksalik yukiga ko‘nadi.

Birlarin xizmati sal boshqa:

Kimningdir boshida sinadi².

Mana shu ikki bandlik she’rda tayoqning funksionalligi antiteza usulida ifodalangan. Oddiy tuyulgan tayoqni to‘rtta maqsad sari tasvirlaydi. Eng muhimmi, bu she’rning tagiga

² Омон Матчон. Сени яхши кўраман. –Т., “Ф.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. –Б.71.

“hazil” deb qo‘yidishining o‘ziyoq kosa tagida nim kosa ekanligini anglatmoqda. Davrning muammolari ham shu ikki bandda akslangan. Ayniqsa, bolalik va keksalik orasidagi masofa birgina tayoq timsolida yaqinlashadi. Umrning g‘animatligi, dunyoning bevafoligi, yaxshi amallarning yo‘lini tutishligiga ishora qilinmoqda. Omon Matchon hazilni falsafiy-estetik kategoriyaga aylantirib, shaxsning jamiyat hayotidagi o‘rnini va qadri xususida mushohada yuritmoqda. Jamol Kamol ta’biricha “Lirika o‘z vazifasi va spetsifikasiga ko‘ra olamni ichdan turib va hayajonli ifodalarni ishga soladi. Ifodalarning teran va hayajonli bo‘lishi lirika qiyofasini belgilovchi muhim xususiyatlardandir. Bu xususiyat lirik asarlarning, odatda, hajman siqiq bo‘lishi, kichik hajmlarga katta ma’nolarni joylashtira bilishi kabi talablarga juda mos bo‘lib tushadi”. Darvoqe, lirik she’rning hajviyot shaklida namoyon bo‘lishida ijtimoiy-ruhiy o‘zgarishlar, shaxsning kamoloti, o‘sish-o‘zgarishlari, topishlar-yu, yo‘qotishlari kabi turli xil qatlamlar aks etadi. Aynan bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyat kasb etuvchi poetik talqinda XX asr odamlarining ahvol-ruhiyasi jozibador tashbehlarda o‘z ifodasini topdi. Shuningdek, davrning adabiyotga bergen xilma-xil mavzulari o‘zining hech qachon rivojlanishini nazarda tutmadı. Soxta metod qurbanlariga aylanib ulgurgan minglab asarlar tarix sahifalaridan shu zaylda o‘chib ketdi.

Xulosa: Shukur Xolmirzayevning “Adabiyot o‘ladimi?!” nomli maqolasi bejiz e’lon qilinmadı. Aynan shu maqola XX asr adabiyotiga yetarlicha baho berishda muhim vazifani bajara oladi deb, o‘ylaymiz. Hajviyot ham turfa mavzular doirasida o‘zining missiyasini to‘laqonli bajarishga erishdi. Anvar Obidjonning Gulmat obrazi bilan Erkin Vohidovning Matmusa obrazi aynan bir davrda yaratilgan. Har ikkala shoir ijodida davrning sermahsul adiblari qay tariqa ijod qilganligini, ijtimoiy dard va sog‘lom muhit sog‘inchi bilan yashagan ijodkorlar alohida bir guruhi ekanligini his qilish qiyin emas.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. –T., “G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti”. 2019. –B.31.
2. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri ocherki. –T., “FAN”. 2008. -B.55.
3. Nazar Eshonqul. Menden “men”gacha. –T., “Akademnashr”. 2014. –B.185.
4. Obidjon A. Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. –T., “Sharq”. 2003. -B.12.
5. Quronov D. va bosh. Adabiyotshunoslik lug‘ati–T., “Akademnashr”. 2010. –B. 139-140.
6. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970. – B.308.
7. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. T., “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2018. –B.258.
8. Vohidov E. SHe'r dunyosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., “Sharq”. 2001. – B.180.
9. Shukurov N. Jonim – she'riyatim. O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –T., “Turon-Iqbol”. –B.104.
10. Vohidov E. Umrim daryosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., “Sharq”. 2001. – B.103.